XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-20-110-7-93-K/25 Bulung‘ur tumani

Bulung‘ur tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-sonli Farmoniga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘iJ.Razzaqov 2025-yil 29-sentabrdagi 1563-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-126-sonli farmoni hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘iJ.Razzaqovning 2025-yil 29-sentabrdagi 1563-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin

2. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-98-sonli Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-126-sonli Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

3. Bulung‘ur tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Bulung‘ur tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Bulung‘ur tuman hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 172 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 22,0 foiz (38 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 1,1 foiz (2 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 69,7 foiz (120 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 4,5 foiz (8 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 1,1 foiz (2 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1,1 foiz (2 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

4. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida quyidagilar:

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Bulung‘ur tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Bulung‘ur tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Bulung‘ur tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-64-sonli qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3, 13, 34, 38, 39, 40, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Bulung‘ur tuman Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

9. Bulung‘ur tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (J.Razoqov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

10. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Yusupov zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi  ASTONOV SAMANDAR MUSTAFOKULOVICH

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani Kengashining
2025-yil 30-oktabrdagi
VII-20-110-7-93-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Bulung‘ur tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/p	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**4053**	**88**	**142**	**38**	**2**	**90**	**8**	**2**	**2**
1	"BULUNG'UR TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI" DAVLAT	200730147	93	2	4	2		0		1	1

	MUASSASASI										
2	"BULUNG`UR TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	200730391	204	10	7	2	1	2	1		1
3	"BULUNG‘UR TUMAN 1-SON POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	200731153	96	5	4	2		2			
4	"BULUNG‘UR TUMAN 2-SON POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	200731160	87	0	4	2		2			
5	"BULUNG‘UR TUMAN MARKAZIY SHIFOXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200731264	1896	45	35	5	1	29			
6	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 8-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT	203345679	53	1	3	1		2			

	MUASSASASI										
7	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO‘LIMIGA QARASHLI 1-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	203473909	144	1	6	1		4	1		
8	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 10-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206869317	63	2	3	1		2			
9	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 11-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI"	206869324	99	2	3	1		2			

	DAVLAT MUASSASASI										
10	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 12-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206869332	69	1	3	1		2			
11	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 13-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206869349	137	1	5	1		3	1		
12	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 16-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT	206869371	66	0	3	1		2			

	MUASSASASI										
13	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 26-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206869450	47	2	2	1		1			
14	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 34-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206869539	51	2	2	1		1			
15	"BULUNG`UR TUMAN 41-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207026146	35	0	2	1		1			
16	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA	207028364	36	0	2	1		1			

	MAKTAB TA’LIM BO‘LIMIGA QARASHLI 52-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI'' DAVLAT MUASSASASI										
17	''BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO‘LIMIGA QARASHLI 8-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI'' DAVLAT MUASSASASI	207050498	61	3	3	1		2			
18	''BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO‘LIMIGA QARASHLI 10-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI'' DAVLAT MUASSASASI	207076401	52	0	2	1		1			
19	''BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI	207076433	42	0	2	1		1			

	BO‘LIMIGA QARASHLI 3-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
20	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO‘LIMIGA QARASHLI 11-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207079634	55	0	2	1		1			
21	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO‘LIMIGA QARASHLI 12-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207079642	39	2	2	1		1			
22	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI	207079659	66	2	3	1		2			

	BO‘LIMIGA QARASHLI 20-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
23	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO‘LIMIGA QARASHLI 22-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207277894	46	2	2			2			
24	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO‘LIMIGA QARASHLI 14-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207277903	53	0	3	1		2			

25	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO‘LIMIGA QARASHLI 24-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207292363	55	1	3	1		2			
26	"SAMARQAND VILOYATI BULUNG`UR TUMANI 68-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI " DAVLAT MUASSASASI	200731217	38	0	2			2			
27	"SAMARQAND VILOYATI BULUNG`UR TUMANI 25-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	203296029	31	0	3	1		2			
28	"BULUNG‘UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO‘LIMIGA	203306204	38	0	5	1		3	1		

	QARASHLI 15-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
29	"BULUNG'UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 18-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	203357694	31	1	5	1		2	1	1	
30	"BULUNG'UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 21-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	206528004	49	0	4	1		2	1		
31	"BULUNG'UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA	206869238	55	0	3	1		1	1		

	QARASHLI 26-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
32	"BULUNG'UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 27-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	206869245	62	3	4	1		2	1		
33	"BULUNG'UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 28-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	206869253	38	0	2			2			
34	"BULUNG'UR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA	206869260	36	2	2			2			

	QARASHLI 34-DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
35	"SAMARQAND VILOYATI BULUNG‘UR TUMAN 30-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	206869277	30	0	2			2			

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani Kengashining
2025-yil 30-oktabrdagi
VII-20-110-7-93-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Bulung‘ur tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
Jami:			**334**	**6**	**30**	**0**	**0**	**30**	**0**
1	"TOXIR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	200788564	120	0	10			10	
2	"ME`MOR" XUSUSIY KORXONA	201434348	103	0	10			10	

3	"BULUNGUR-SANDVIK" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	307047007	111	6	10			10	